ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 9

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 9

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

‘‘XIRMONDALI’’ DOSTONIDAGI ANTROPONIMLARNING TAHLILI

Saliyeva Charos G‘ani qizi
RANCH texnologiyalar universiteti magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada onomastika faninning tarmog‘i bo‘lgan antroponimlar va guruhlarga bo‘linishi, ‘‘Xirmondali’’ dostonidagi antroponimlarning kelib chiqishi, tuzilishi va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Onomastika, antroponim, nominatsiya, nomshunoslik antropokomponentli, antroformantli, dali.

Abstract. This article analyzes the division of anthroponyms into groups and branches of onomastics, the origin, structure and semantic features of anthroponyms in the epic poem "Khirmondali".

Keywords. Onomastics, anthroponym, nomination, nomenclature, anthropocomponent, anthroform, dali.

Аннотация. В данной статье анализируется деление антропонимов на группы и ветви ономастики, происхождение, структура и семантические особенности антропонимов в эпической поэме «Хирмондали».

Ключевые слова: ономастика, антропоним, номинация, номенклатура, антропокомпозиция, антропоформа, дали.

KIRISH.

Xalq og‘zaki ijodining bir bo‘lagi bo‘lgan dostonlar nafaqat insoniyat tarixi, ajdodlarimizning urf-odatlari, turmush tarzi, va ma’naviy dunyoqarashini ko‘rsatib beruvchi manba, balki, tilshunoslik taraqqiyotining rivojlaish bosqichlarini belgilab beruvchi muhim omillar sirasiga kiradi

Onomastika tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganuvchi bo‘limi hisoblanib, antroponimlar esa onomastikaning inson nomlarini o‘rganuvchi sohasi bo‘lib, ularda xalqning tarixi, madaniyati, diniy qarashlari va milliy tafakkurini aks ettiradi. Antroponimlar masalasi o’tgan XI asrdayoq turkiy tilshunoslikka oid birinchi manba hisoblanuvchi Mahmud Koshg’ariyning “Devoni lug’atit turk” asarida o’z isbotini topgan edi. Nomshunoslik “onomastika” termini bilan ham yuritiladi. Onomastika yunoncha so‘z bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni bildiradi.

Atoqli nomlarning til xususiyatlarini o‘rganilish darajasiga qarab onomastika adabiy va dialektal onomastika, odatdagi va poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika kabi turlarga ajratiladi.

Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo‘lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o‘zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda

ISSN 3030-3907

qo‘llanilishi, muayyan bir hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o‘rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo‘lib, bu badiiy onomastika yoki onomopoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo‘llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o‘rganadi.

Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkrinsiyasi, transliteratsiyasi, an’anaviy (talaffuz va yozilishiga ko‘ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, “begona” nomlarni o‘z tilda qanday yozish bo‘yicha yo‘riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o‘zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o‘zlashtirish masalalari bilan ham shug‘ullanadi.

O‘zbek xalq dostonlari, xususan, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi ‘‘Xirmondali’’ dostonida antroponimlarni uchratishimiz mumkin. Antroponimlarga ism, laqab va taxalluslar kiradi. Antroponimlar nafaqat nomlash, balki obraz xarakterini ochish berish vazifasini ham bajaradi.

O‘zbek tilshunosligida E.Begmatovning monografik tadqiqotlari onomastikaga, xususan, antroponimikasini o‘rgangan fidoyi olimlardan biri sanaaldi. O‘zbek nomshunosligi bo‘yicha olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar o‘zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug‘atlar, ko‘p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan sohaga o‘zining katta hissasini qo‘shdi.

Jumladan, bu soha bo’yicha E.Begmatov, Z.Do‘simov, T.Nafasov, B.O‘rinboyev, B.Yo‘ldoshev, N.Oxunov, N.Uluqov, S.Qorayev, S.Naimov, G‘.Sattorov, I.Xudoynazarov, R.Nuriddinova, S.Kenjayeva, Sh.Temirov, D.Yuldoshev, Q.Olloyorov, N.G‘aniyev, I.Xolmuratov, N.Adizova, N.Mo‘minova va boshqalar onomastika va uning yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar ishlarini olib borishgan.

O‘zbek tilida antroponimlar o‘z tuzilishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: antropokomponentli va antroformantli. Antropokomponentli qo‘shma ismlarda har ikkala komponent ham so‘z shaklida bo‘ladi: Gulhayo, Gulchehra, Gulchiroy kabi. Antropoformantli ismlar mustaqil so‘z va qo‘shimchadan iborat bo‘ladi: Turdi, Samandar kabi. Qo‘shma antroponimlarni hosil qilishda ishtirok qiladigan ayrim leksemalar o‘z xarakteriga ko‘ra erkak va ayol ismlarining yasalishiga ko‘ra farqlanadi. Masalan: Quvonchbek, Quvonchoy. Xirmondali antroponimi ham antropokomponentli ya’ni, qo‘shma ismlar safiga kiradi. Xirmon so‘zi fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, asl shakli “xirman” ya’ni, yig‘ilgan don uyumi, g‘alla to‘plangan joy, hosil uyumi ma’nosini anlatadi. O‘zbek tilida

ISSN 3030-3907

fonetik o‘zgarish natijasida ‘‘xirman’’ so‘zi xirmon shaklida ham ishlatiladi. Hozirgi adabiy tilda ko‘proq xirmon varianti qo‘llaniladi. Turkiy tillarida dali so‘zi ‘‘qo‘rqmas’’, ‘‘botir’’, ‘‘shijoatli’’, ‘‘g‘ayratli’’ pahlavonlarga nisbatan ishlatilgan. Dali so‘zini telba jinni degan manolari ham mavjud. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida bu so‘z turkiy emas, keyinroq forsiy qatlam orqali kirgan o‘zlashma sifatida qaraladi. Xirmondali ismining asosiy ma’nosi “pahlavon qiz”, “g‘ayratli va jasur qiz” yoki folklor an’analariga ko‘ra “xurmo mevasidan tug‘ilgan go‘zal” deb ham talqin qilinadi. Bu ism o‘zbek tili lug‘atlarida alohida zamonaviy ism sifatida ko‘p uchramaydi.

Manbalarga qaraganda Xirmondali antroponimning kelib chiqishi haqida ikki xil qarash mavjud.

Birinchi qarashga ko‘ra, xurmo mavasi bilan bog‘liq bo‘lib, xalq dostonlarida keltirilishicha, qizning onasi xurmo mevasini yeb, unga boshqorong‘i bo‘ladi va farzand dunyoga keladi. Shu sababli qizga Xirmondali (ba’zi variantlarda Xiromon pari yoki Dali Xiromon) deb ism qo‘yiladi. Bu talqinda u ‘‘nozik, go‘zal va aziz’’ ma’nolarini anglatadi.

Ikkinchi qarashga ko‘ra, pahlavonlik ma’nosida kelib, Xirmondali oddiy qiz emas, balki ‘‘pahlavon qiz’’, ‘‘qizlarning xoni’’ sifatida tasvirlanadi va kurashda 300 ta polvonni yenggan qahramon qiz sanaladi.

Doston antroponimlarining biri Go‘ro‘g‘li ismi ikkita birlikdan tashkil topgan antropokomponentli antroponimlarga kirib go‘r fors tilidan kirib kelgan bo‘lib qabr ma’nosini, o‘g‘li turkiy tilda farzand ma’nosini bildiradi. Ma’lumki, go‘r bu qabr bo‘lib, mazkur nom “go‘r farzandi” ya’ni, “qabr farzandi” ma’nosini anglatadi. Dostonlarda Go‘ro‘g‘lining g‘ayritabiiy tug‘ilishi bilan bog‘liq afsonaviy qarashlar ushbu nom orqali ifodalangan. Antroponim epik qahramonning sirli va qudratli tabiatini ochib beradi. Go‘ro‘g‘li qadimiy va tarixiy ism bo‘lib, asosan o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi. Doston syujetiga ko‘ra, qahramon onasi vafot etib, qabrga qo‘yilganidan so‘ng tuproq ostida dunyoga keladi va shuning uchun unga shunday nom berilgan. Go‘ro‘g‘li xalq og‘zaki ijodida jasorat, vatanparvarlik, mardlik va adolat timsoli sanaladi. U o‘zining afsonaviy tulpori (G‘irot) va sodiq do‘stlari (qirq yigiti) bilan el-yurt tinchligini himoya qiluvchi qahramon sifatida tasvirlanadi.

Arslonboy ismi ikki komponentdan iborat bo‘lib, arslon turkiy kelib chiqishiga ega bo‘lib, sher, kuch va jasorat ramzi hisoblansa, boy esa hurmat va mavqe bildiruvchi unsurdir. Bu antroponim qahramonning qudratli, martabali inson ekanligini ko‘rsatadi. Turk xalqlari antroponimikasida hayvon nomlari asosida yasalgan ismlar ko‘plab uchratish mumkin.

ISSN 3030-3907

Ali arabcha ism bo‘lib, “ulug‘ ”, “yuksak” ma’nolarini bildiradi. Bu nom sharqona poetik ruhga ega bo‘lib, obrazning go‘zalligi va ulug‘ligini ifodalaydi. Ko‘plab doston va rivoyatlarda bu ismni uchratish mumkin.

Karamjon ismi arab tilidan kirib kelgan saxovat, muruvvat, ma’nolarib anglatadi. Fors tilidagi -jon komponenti qo‘shimcha bo‘lib erkalash va yaqinlik qo‘shimchasidir. Karamjon antroponimi insonning mehribon va saxovatli ekanligini anglatadi -jon komponenti o‘zbek antroponimiyasida faol ishlatiladi.

Qambar arabcha kelib chiqishga ega bo‘lib, tarixiy-diniy manbalarda uchraydi. Turk xalqlari folklorida sadoqatli va jasur obraz nomi sifatida qo‘llanadi. Qambar-qadimiy va tarixiy ism bo‘lib, turkiy-musulmon xalqlari orasida keng uchraydi. Qambar - xizmatkor, sodiq inson ma’nolarida izohlanadi. Islom tarixida Hazrati Alining sodiq xizmatkori va sahobalaridan biri Qambar nomi bilan mashhur bo‘lgan. “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida, xalq og‘zaki ijodida Qambar ismi uchraydi.

Oshiq Oydin pir - Xorazm dostonchilik maktabida baxshilar, sozanda va shoirlarning homiysi hamda piri hisoblangan muhim tarixiy va afsonaviy shaxslardan biridir. Bu antroponimining kelib chiqishi tarixiy manbalarga ko‘ra, u 1115–1191-yillarda Xorazmshohlar davlatida yashab o‘tgan bo‘lib, asl ismi Oshug‘iddin Umar Suxravardiy bo‘lgan.

Oshiq Oydin pir obrazi ko'plab Xorazm turkum dostonlarida ilohiylashtirilgan holatda uchraydi. Xususan, ‘‘Oshiq Najab’’, ‘‘Xirmondali’’ va ‘‘Oshiq Alband’’ dostonlaridan ham bu ism keltirilgan. Bugungi kunda bu ism ko‘proq qizlarga qo‘yilib, yorug‘ va ravshan degan ma’nolarni anglatadi.

Gulshan ismi forscha kelib chiqishga ega bo‘lib “Gulzor”, “gul bog‘i” ma’nolarini bildiradi. Sharq adabiyotida nafislik va go‘zallik timsoli sifatida ishlatiladi. Bu ism bugungi kunda ishlatilib kelinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak “Xirmondali” dostoni turli tillardan kirib kelgan antroponimlarni o‘z ichiga olgan folklor namunasidir. Undagi kishilar nomlarida xalqning tarixiy, diniy va madaniy qarashlarini aks ettiradi. Antroponimlar nafaqat nomlash vazifasini, balki obrazlarning xarakterini ochish, badiiy-estetik ta’sirni kuchaytirish vazifasini ham bajaragan. “Xirmondali” dostonidagi ba’zi nomlar bugungi kunda ishlatilmaydi, ba’zilaridan esa hozirda ham foydalaniladi. Doston matnidagi turkiy, arabiy va forsiy qatlamga mansub nomlar o‘zbek antroponimikasining boyligini namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ‘‘Oshiqnoma’’ ‘‘Xirmondali’’ dostoni 4-kitob -Xorazm: Xorazm, 2009.
2. Kenjayeva S. O‘zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi: Filol.fan bo‘yicha falsafa d-ri. (Phd) diss. – Qarshi,2019.
3. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent,2013. 604 b.

ISSN 3030-3907

4. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi (izohli lug‘at). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 604b.

ISSN 3030-3907